




FILOLOGIYA

VA PEDAGOGIKA

2026-yil
15 (34)-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ
И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY
AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

**2026-yil
15 (34)-son**

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR

Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:

Shahobiddin Rasulov

Najmiddin Ermatov

Emma Torosyan

Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI

Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri

Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefon: (55) 510-28-44,

(77) 358-57-67

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.08.2026 da
nashr etildi.

MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab

ta'limi vazirligi

"Til va adabiyot ta'limi"

davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI**

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vaziri*

Farhod Boqiyev

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri o'rinbosari*

Azizbek Turdiyev

*O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vaziri o'rinbosari*

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" –
"Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching"
jurnali bosh muharriri*

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nurafshon filiali professori,
filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodzyevskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
dotsenti, pedagogika fanlari doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Anvar Bo'ronov

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Dilmurod Teshaboyev

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Gulhida Ikromova

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Aziza Axmedova

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi*

Iroda Nasimova

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ma'suma Mo'minova

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Abduvali Daminov

O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar

*fakulteti huquqiy fanlar kafedrasida katta
o'qituvchisi*

Gulnoza Uzokova

*Qarshi davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi*

Lola Akramova

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti
o'zbek tili va xorijiy tillar,
pedagogika kafedrasida dotsenti*

Zulfiya Ortiqova

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori*

Pulotjon Qaxorov

*Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali dotsenti*

Dilafroz Asqarova

*Farg'ona davlat universiteti maktabgacha
ta'lim kafedrasida o'qituvchisi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrda 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Svetlana Umirova. O'xshatish modellarini korpus asosida aniqlash (Usmon Azim ijodi misolida)	4
Diyora Fayzullayeva. Tarixiy voqelik tasvirida badiiy mahorat va uslub masalalari.....	7
Yulduz Mustafayeva. O'zbek nasrida badiiy psixologizm genezisi va taraqqiyot tamoyillari.....	9
Maftuna Rahimova. Sintaksisda mantiqiy strukturalarning voqelanishi	11
Sarvinov Mardonova. O'zbek tilida leksik birliklarning ma'no taraqqiyoti va semantik o'zgarishlar	14
Komila Saydjanova. Fransuz va o'zbek tillari dialogik diskursida antonimlarning kommunikativ-pragmatik funksiyalari	16
Nigora Shadmanova. Rus va o'zbek tillarida nutq odob-axloqining milliy-madaniy xususiyatlari.....	18
Oydinoy Turayeva. Ingliz maqollarining strukturaviy va semantik xususiyatlari: kognitiv-pragmatik tahlil	20
Ikbola Abdullaeva. Филологические аспекты аксиологии человеческой жизни в книге А.П.Чехова «Остров Сахалин».....	22
Нигора Абдурашитова. Историко-культурные истоки и эволюция образа женщины-воительницы в восточных дастанах	25
Шахноза Адилова. Художественная специфика «массовой литературы».....	28
Нафиса Матчанова. Метафорические средства в лексико-семантической организации романа Г.Яхиной «Зулейха открывает глаза»	30
Дильбар Расулова. Многокомпонентная стилистическая конвергенция как средство репрезентации субъективного сознания в «Романе с жертвой» И.Абузярова.....	32
Отабек Усмонов. Косвенные речевые акты как объект современной прагмалингвистики.....	35
Darmonoy O'rayeva, Nilufar Narzullayeva. "Qon" va "suyak" tushunchalarining badiiy-falsafiy talqin asoslari	37
Mirzohid Muhammadaliyev. Kombayn poreyonimlarining leksik-semantik va nominativ tasnifi.....	40
Elbek Kurbanov. Sud lingvistik ekspertizasi: haqorat kontekstida implitsit ma'lumotlarni aniqlash mexanizmlari	42
Po'lotshoh Bobokalonov. Nutq buzilishi va nutq izolatsiyasining neyropsixolingvistik modeli	45
Ulbosin Ametova. Xorazm epik she'riyatining shakllanishi va uning nazariy asoslari	47
Nigora Mahmudova. The Concept of Derivation and the Stages of its Development in Linguistics.....	49
Mubina Mansurova, Surayyo Abidjonova. Modern Linguistics and Culture. Digital English: How Gaming and Social Media Shape Youth Slang	51
Diyora Shamshiyeva. Erkin A'zam asarlaridagi genderga xos murojaat birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari	53
Barno Ergasheva. Frans Kafkaning "Qal'a" romanida oneyrik poetika: tush mantig'i va badiiy voqelik	56
Lola Avliyoqulova. Onkologiya sohasidagi tibbiy atamalarning struktur-semantik tahlili.....	59
Shahlo Sa'dullayeva. O'qituvchi obrazi arxetip sifatida (o'zbek va turk nasrlari misolida).....	61
Gulasal Xayrulloeva. Turli diskurslarda modallikning funksional-pragmatik xususiyatlari.....	64
Dilorom Yusupova. Arab tilidagi so'roq gaplarning yoritilishi: zamonaviy tilshunoslarning qarashlari	66
Санобар Уллиева. Роль фонетических языковых единиц в создании художественного образа.....	69
Яшин Нишанов. Субконцепт мудрость как составная часть концепта старость.....	71
Xilola Fazullayeva. Raqamli media muhitida infoteyment fenomeni: jurnalistik etika va transformatsiya jarayonlari	73
Nilufar Ibragimova. Alisher Navoiy musaddasida irfoniy-falsafiy tafakkur va uning badiiy ifodasi.....	75
Sadinura Ruzimurodova. O'zbek adabiy tili va qipchoq lahjasida konsonant alternatsiya hodisasining ortologik talqini	78
Mashxuraxon Burxanova. Tilning perseptual va konseptual paradigmasi	80
Dilfuza Avazova. Mushtarak obrazlar tahlili (Alisher Navoiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat va Abdulla Oripov ijodi misolida).....	82
Yashin Azizov. O'zbek tilida metateza jarayoni: fonologik tadqiqot.....	84
Nursulton Eshmonov. Qarindoshlik atamallari tizimida etnolingvistik omillar.....	87
Gulxayo Osomiddinova. Mashrab obrazining diniy-tasavufiy talqini.....	91
Aziza Navro'zova. Realialarni tasniflashning lingvokulturologik muammosi	94
Olima Safarova. Farmatsevtik terminologiya va diskurs: lingvistik, semantik va kommunikativ xususiyatlar	97
Jasmina Axmedova. Buyuk Britaniyada ayollar matbuotining vujudga kelish zarurati.....	99
Surayo Akramova. Badiiy matnda lokutiv qatlamning poetik semantikasi shakllantirishdagi o'zni (Jamol Kamol she'riyati misolida)	101
Intizor Umarova. Intermetnlikni shakllantiruvchi vositalar: allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoya	104
Iqbola Jahongirova. Ijtimoiy media diskursida multimodal dezinformatsiyaning lingvopragmatik xususiyatlari	106
Dildora Ibragimova. Frazologizmlarning dramalarda qo'llanishi va uning badiiyatga ta'siri	108
R.Kudiyarova. Saylovboy Jumag'ulov asarlarida foydalanilgan folklor obrazlar	112
Rayhona Raxmatova. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida qahramonlar taqdiri	114

Feruza Raxmonberdiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida tashqi qiyofa va xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	117
Bunyodbek Sotvoldiyev. Hackerlar va kiberxavfsizlik sohasiga oid sleng birliklarining lingvistik xususiyatlari.....	119
Surayyo Akramova. Jamol Kamol she'riyatida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanishi.....	121
Ma'mura Narziyeva. Abdulla Oripov she'riyatining lingvokulturologik xususiyatlari.....	123
Dilnavoz Yusupova. Ta'lim tizimida Alisher Navoiy g'azallarini sharhlash	125
Anora Hikmatova. Erkin A'zamning "Chapaklar va chalpapaklar" asarida etnomadaniy kodlar va estetik modusning lingvopoetik hamda lingvomadaniy tadqiqi	128
Anvar Jo'rayev. "Roqim devoni" matnining shakllanish tarixi: qo'lyozma va bayoz manbalari munosabati.....	130
Gulchehra Mustafayeva. Ingliz va o'zbek tillaridagi go'zallik bilan bog'liq o'xshatishlar: o'ziga xoslik va umumiylik.....	132
Nodira Sayfiddinova. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida retrospektiv usulning ahamiyati	134
Surayyoxon Ibroximova. Futuvvatnomalarning janriy xususiyatlari: shakl, mazmun va poetika	136
Dilafroz Xaydarova. Ispan diplomatik terminologiyasining o'zbek va rus tillariga tarjimasida kommunikativ-pragmatik moslashuv	139
Shahlo Xasanova. Harbiy diskursda buyruq va murojaat strategiyalarining pragmatik xususiyatlari	142
Sultonposhsho Sotiboldiyeva. Yangi O'zbekiston obrazining xalqaro media matnlarida shakllanishi: lingvistik va kommunikativ xususiyatlar	144
Dilora Pardayeva. Ingliz va o'zbek maqol hamda matallarida ambivalent mazmunning voqelanishi	147
Surayyo Jo'rayeva. Koinot, tabiat va inson: Isajon Sulton nasrida ilohiy yaratilish va borliq harakati	150
Fakhriddin Yarmanov. Analyse comparative des unités phraséologiques en français et en ouzbek.....	152
Laziza Xudayberdiyeva. Nutqiy yetishmovchiliklar: duduqlanish va unung sabablari	156
Yulduz Nafasova. O'zbek tilida presuppozitsiya turlarining tasnifi va ifodalanish vositalari tadqiqi	160
Nilufarxon Maxmudova. O'zbek xalq topishmoqlarida antropomorf metaforalarning voqelanishi	162
Fotima Ismoilova. Isajon Sultonning tarixiy roman yaratishdagi ijodiy mahorati.....	164
Nodira Qurbanova, Maftuna XAmdamova. Recurrent Themes and Stylistic Strategies in the Fiction of Joyce Carol Oates.....	167
Svetlana Umirova. Usmon Azim mualliflik korpusi uchun ekstralingvistik teglar modelini ishlab chiqish masalasi	170
Sarvinov Umirova. Linguistic Innovations in Youth Language on Social Media: a Paralinguistic Perspective.....	175
Gulshoda Avloyorova. Milliy mentalitet va bolalar adabiyoti estetikasi: G'arb va Sharq paradigmalarining qiyosiy tahlili.....	178
Nilufar Ko'chimova. BMT nutqlarida "tinchlik" konseptining lingvopragmatik reprezentatsiyasi.....	181
Diyora Abdujalilova. Odob-axloq masalasi Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlioli talqinida.....	182

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Madina Abduqodirova. Adabiyot darslarida sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasining nazariy-metodik asoslari	188
Мадина Исмагилова. Методические основы предупреждения интерференционных ошибок при изучении категории числа русского языка в узбекской школе.....	190
Шахризода Келдиёрова, Мохларойим Келдиёрова. Генеративный искусственный интеллект и иллюзия компетентности в обучении английскому языку: проблема подмены самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов	193
Матлуба Мирханова. Функционально-коммуникативный подход к изучению сложноподчинённых предложений на уроках русского языка	195
Муштарийбону Ахмедова. Эффективные формы организации уроков рки в классах с узбекским языком обучения в начальной школе	197
Diyora Baxramova. Pedagogical and Methodological Features of Developing Sociolinguistic Competence of Higher Education Students.....	200
Lutfiya Erkinova. Tpack and PBL as Modern and Effective Tools to Implement in Teaching	204
Ilaylo Odilova. Irony and Sarcasm in Uzbek and English Literary Discourse: a Comparative Pragmatic and Stylistic Study.....	206
Sayyora Islomkhodjayeva. Promoting English Language Development in Military Higher Education Through Blended Instruction	209
Solijon Azizov. Uch komponent – bir maqsad: blended ta'lim yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning yangi modeli	214
Nigora Saidova. Neyropedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....	218
Dilsora Shodmonova. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik mohiyati	221
Nargiza Musulmanova. Elektron ta'lim resurslari asosida talabalar nutqiy savodxonligini o'quv jarayoniga integratsiya qilish.....	223
Dilobar Qayumova. The Role of Audio Dictionaries in Developing Pronunciation Competence	228
Muazzam Otabaeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari.....	230
Ulug'bek Yunusov. O'smirlarda qadriyatlar shakllanishining psixo-pedagogik xususiyatlari.....	232

Barno ERGASHEVA,

Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

FRANS KAFKANING “QAL'A” ROMANIDA ONEYRIK POETIKA: TUSH MANTIG'I VA BADIY VOQELIK

Annotatsiya. Maqolada Frans Kafkaning “Qal'a” romanidagi oneyrik poetika badiiy voqelikni tashkil etuvchi tamoyil sifatida tadqiq qilinadi. Makon va vaqtning beqarorligi, sabab-oqibat aloqalarining buzilishi, maqsadga yetolmaslik, absurd hodisalarning tabiiy qabul qilinishi va qahramonning begonalashuvi tush mantig'i bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Frans Kafka, “Qal'a”, oneyrik poetika, tush mantig'i, absurd, begonalashuv, badiiy makon, badiiy voqelik.

Annotation. The article examines oneiric poetics in Franz Kafka's *The Castle* as a principle of organizing fictional reality. It analyzes unstable space and time, disrupted causality, the unattainability of the protagonist's goal, the natural acceptance of absurd events, and alienation in relation to the distinctive logic of dreams.

Keywords: Franz Kafka, *The Castle*, oneiric poetics, dream logic, absurdity, alienation, fictional space, fictional reality.

Аннотация. В статье исследуется онейрическая поэтика романа Франца Кафки «Замок» как принцип организации художественной реальности. Анализируются неустойчивость пространства и времени, нарушение причинно-следственных связей, недостижимость цели, естественное восприятие абсурда и отчуждение героя в их связи с логикой сновидения.

Ключевые слова: Франц Кафка, «Замок», онейрическая поэтика, логика сна, абсурд, отчуждение, художественное пространство, художественная реальность.

XX asr jahon adabiyotida Frans Kafka ijodi inson va borlik, shaxs va hokimiyat, ong va tushuntirib bo'lmaydigan voqelik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'ziga xos badiiy shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. F.Kafka yaratgan olam bir qarashda kundalik hayotga yaqin: unda qishloqlar, idoralar, amaldorlar, xatlar, telefon suhbatlari, xizmat munosabatlari va oddiy insoniy ehtiyojlar mavjud. Biroq shu tanish muhit ichida odatiy mantiqqa sig'maydigan holatlar yuz bera boshlaydi. Eng qizig'i, qahramonlar ularni doimo g'ayritabiiy hodisa sifatida qabul qilmaydi. Ular tushuntirish qiyin bo'lgan voqelik ichida yashaydi, uning tartibini anglashga urinadi va ko'pincha shu tartibning o'ziga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Kafka nasrining bu xususiyati uning badiiy tafakkurini tush va tush mantig'i bilan bog'liq holda o'rganish uchun muhim asos beradi.

“Qal'a” romani bu jihatdan alohida e'tiborga loyiq. Asarda qahramonning “men tush ko'rdim” deb boshlanadigan an'anaviy tush epizodi markaziy o'rinda turmaydi. Shunga qaramay, romanni o'qish davomida voqealar uzoq davom etayotgan tushga o'xshash taassurot uyg'otadi. Qal'a ko'rinadi, lekin unga yetib borish qiyin; hokimiyat mavjud, ammo uning markazi mavhum; odamlar ko'p gapiradi, lekin aytilgan gaplar vaziyatni oydinlashtirmaydi; asar bosh qahramoni tanobchi K. tinimsiz harakat qiladi, ammo maqsadiga yaqinlashgani sari yangi to'siqlar paydo bo'ladi. Voqealar o'rtasidagi aloqa butunlay yo'qolmaydi, lekin bu aloqa odatiy hayotiy mantiqdan farqli tarzda ishlaydi. Aynan shu holat “Qal'a”ni oneyrik poetika nuqtayi nazaridan o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kafka ijodi absurd, begonalashuv, byurokratiya, hokimiyat, aybdorlik va insonning yolg'izligi kabi muammolar doirasida ko'p tadqiq qilingan [2: 3]. Biroq “Qal'a”dagi tushmonand holatni faqat mazkur mavzularning tashqi ko'rinishi sifatida tushunish asar poetikasining muhim qatlamlari e'tibordan chetda qoldiradi.

“Oneyros” tushunchasi yunoncha “oneiros” – “tush” so'zidan kelib chiqqan. Adabiy matndagi oneyriklik haqida gap ketganda ko'pincha qahramon ko'rgan aniq tush epizodlari nazarda tutiladi. Aslida esa tush poetikasi bundan kengroq hodisadir. Tush asarda mavzu bo'lishi mumkin, shu bilan birga uning makon, vaqt, sababiyat va voqelikni idrok etish tamoyillari badiiy matnning tuzilishiga singishi ham mumkin. Ikkinchi holatda muallif tushni tasvirlashdan ko'ra, tushga xos voqelik modelidan foydalanadi. “Qal'a”ni aynan shu nuqtayi nazardan o'rganish samaralidir.

Romanning dastlabki sahnalaridayoq Kafka o'quvchini noaniq makonga olib kiradi. K. qishloqqa kechasi yetib

keladi. Atrof qorong'i, qor bilan qoplangan, Qal'a esa dastlab ko'zga aniq tashlanmaydi [1: 5]. Bu boshlanish oddiy peyzaj tasviridan ko'ra kattaroq vazifani bajaradi. Qahramon hali o'zi kirib kelgan makonning qoidalarini bilmaydi, o'quvchi ham u bilan birga noaniqlik holatiga tushadi. Keyinchalik Qal'a ko'rinadigan obyektga aylanadi, biroq uning ko'rinishi vaziyatni oydinlashtirmaydi. Aksincha, K. unga yaqinlashishga harakat qilgan sari makonning odatiy qonuniyatlari shubha uyg'ota boshlaydi. Qal'aga olib borishi kerak bo'lgan yo'l qahramonni to'g'ridan-to'g'ri maqsadiga eltmaydi [1: 16]. Ko'z bilan ko'rilayotgan masofa amalda bosib o'tilishi qiyin bo'lgan masofaga aylanadi.

Realistik badiiy makonda yo'l odatda bir nuqtani ikkinchi nuqta bilan bog'laydi. Yo'lni bosib o'tish qahramonni maqsadga yaqinlashtiradi. “Qal'a”da esa bu oddiy munosabat buziladi. K. harakat qiladi, ammo harakatning o'zi maqsadga yaqinlashish kafolati bo'lolmaydi. Shu jihatdan romandagi makon tushda kuzatiladigan g'alati tajribani eslatadi: inson manzilni ko'rib turishi mumkin, lekin unga yetib bora olmaydi; yo'l bor, biroq yo'lning mavjudligi maqsadga yetishni anglatmaydi. Kafka aynan shu nomuvofiqlikni asar makonining barqaror xususiyatiga aylantiradi.

Qal'a va qishloq o'rtasidagi masofa shu sababli faqat geografik masofa emas. U K. bilan u tan olinishga intilayotgan tizim o'rtasidagi masofani ham ifodalaydi. Qal'a haqida hamma biladi, uning amaldorlari tilga olinadi, undan xatlar va topshiriqlar keladi. Demak, uning mavjudligi shubha ostiga olinmaydi. Shunga qaramay, K. uchun u doimo yetib borish qiyin bo'lgan markazligicha qoladi. Bu yerda muhim paradoks yuzaga keladi: Qal'a uzoq bo'lgani uchun mavhum emas, aksincha, juda yaqin ko'ringani holda unga erishib bo'lmagani uchun mavhumlashadi. Tushda ham ayrim obyektlar aynan shunday ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi: ular tanish va begona, yaqin va uzoq holatda bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi mumkin.

Romandagi vaqt ham makon singari qahramonning maqsadga yo'nalgan harakatiga to'liq xizmat qilmaydi. Voqealar ketma-ket sodir bo'ladi: K. odamlar bilan uchrashadi, suhbatlashadi, Qal'a bilan aloqa o'rnatishga harakat qiladi, yangi ma'lumotlar oladi. Tashqi tomondan vaqt oldinga harakat qilayotgandek. Biroq asosiy maqsad nuqtayi nazaridan vaziyat deyarli o'zgarmaydi. K.ning yer o'lchovchi sifatidagi mavqeyi oydinlashmaydi, Qal'a bilan munosabati aniq shaklga kirmaydi, har bir yangi javob navbatdagi savolni keltirib chiqaradi [1: 28]. Natijada xronologik vaqt bilan qahramonning

ichki tajribasi o'rtasida farq yuzaga keladi. Vaqt o'tadi, ammo yechim yaqinlashmaydi.

Bu xususiyat tush mantig'i bilan bog'liq yana bir jihatni ko'rsatadi. Tushda inson uzoq voqealarni juda qisqa muddatda boshdan kechirishi yoki aksincha, qisqa holatni nihoyatda cho'zilgan tarzda his qilishi mumkin. "Qal'a"da vaqt bevosita fantastik tarzda o'zgaraydi, lekin uning funksiyasi o'zgaradi. U natijaga olib boruvchi chiziqli jarayon bo'lishdan chiqib, takroriy urinishlar makoniga aylanadi. K. har safar oldinga siljiyotgandek bo'ladi, biroq keyingi vaziyat uni yana noaniqlik holatiga qaytaradi. Shu tariqa Kafka vaqtini ham qahramonning begonalashuvini kuchaytiruvchi poetik vositaga aylantiradi.

Romanning oneyrik tabiatini belgilovchi yana bir muhim jihat sabab va oqibat o'rtasidagi munosabatdir. K. qishloqqa yer o'lchovchi sifatida kelganini ma'lum qiladi. Oddiy mantiqqa ko'ra, uning kim tomonidan chaqirilgani, vazifasi nimadan iboratligi va kimga bo'ysunishi qisqa muddatda aniqlanishi kerak. Romanda esa aynan shu oddiy savollar murakkab muammoga aylanadi. Telefon orqali olingan ma'lumotlar, ma'muriy izohlar va turli shaxslarning tushuntirishlari masalani hal qilmaydi [1: 30]. Aksincha, aniqlik izlangan sari noaniqlik ko'payadi. Har bir javob yangi savol tug'diradi, har bir vositachining ortidan boshqa vositachi paydo bo'ladi.

Bu holatni faqat byurokratiya tanqidi sifatida tushuntirish yetarli emas. Kafka yaratgan tizim tartibsiz bo'lgani uchunгина dahshatli emas. Uning o'z tartibi mavjud, faqat K. bu tartibni anglay olmaydi. Qishloq aholisi esa ko'pincha shu g'alati qoidalarni tabiiy qabul qiladi. K. uchun tushunarsiz ko'ringan munosabatlar ular uchun kundalik hayotning bir qismidir. Bu nuqtada Kafka olami tush tajribasiga juda yaqinlashadi. Tush ko'rayotgan inson ba'zan uyg'oq holatda mutlaqo mumkin emas deb hisoblaydigan vaziyatni tush davomida tabiiy qabul qiladi. G'ayrioddiy hodisa bilan unga bildirilayotgan oddiy munosabat o'rtasidagi tafovut "Qal'a"dagi tushsimon effektning eng kuchli manbalaridan biridir.

K. bu g'alati olam oldida passiv qahramon emas. U savol beradi, talab qiladi, bahslashadi, odamlar bilan munosabat o'rnatadi, Klammga yaqinlashishga va Qal'a bilan bevosita aloqa qilishga urinadi [1: 133]. Shunga qaramay, uning faolligi kutilgan natijani bermaydi. Bu yerda Kafka qahramonining muhim paradoksi ko'rinadi: harakat bor, lekin taraqqiyot yo'q. K.ning har bir yangi urinishi qisqa muddatga maqsad yaqinlashayotgandek taassurot uyg'otadi, biroq keyin yana yangi to'siq paydo bo'ladi. Roman davomida "maqsad – harakat – to'siq – yangi urinish – yangi to'siq" modeli qayta-qayta takrorlanadi.

Bu modelni tushga xos yetib bo'lmastlik holati bilan qiyoslash mumkin. Inson tushida biror joyga yugurishi, kimnidir quvishi yoki eshikni ochishga urinishi mumkin, ammo jismoniy harakatning mavjudligi natijani kafolatlamaydi. "Qal'a"da ham K.ning muammosi uning harakatsizligida emas. Muammo shundaki, qahramon ratsional mantiq bilan harakat qilayotgan bir paytda uning qarshisidagi olam boshqa qonuniyat asosida ishlaydi. K. sabab va oqibat munosabatini izlaydi, Qal'a tizimi esa unga doimo yangi sabab, yangi vositachi va yangi izohni taklif qiladi. Natijada qahramon yechimga emas, tobora murakkablashib borayotgan izohlar ichiga kirib boradi.

Shu nuqtada "Qal'a"dagi oneyriklik begonalashuv muammosi bilan tutashadi. Erix Fromm "Душа человека" (The Heart of Man: Its Genius for Good and Evil (1964)) asarida inson tabiiy va ijtimoiy kuchlarning ta'sir obyekti bo'lishiga qaramay, mutlaq passivlikka ko'nika olmasligini ta'kidlaydi. Inson o'z irodasi va kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirishga intiladi. Biroq o'zini o'z his qilgan sharoitda hokimiyatga ega

shaxs yoki guruhga bo'ysunish, o'zini u bilan birlashtirish orqali kuch va faoliyat hissini saqlab qolishga urinishi mumkin [5]. Bu fikr K.ning Qal'a bilan munosabatini to'g'ridan to'g'ri izohlab bermaydi, ammo qahramon holatidagi muhim ziddiyatni anglash uchun samarali nazariy nuqta beradi.

K. Qal'adan voz kechib, qishloqni tark etishga shoshilmaydi. Aksincha, u Qal'a tomonidan tan olinishni istaydi. Yer o'lchovchi sifatidagi mavqeyining tasdiqlanishi uning uchun oddiy xizmat masalasidan kattaroq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Qahramon tizimning g'alati qoidalariga qarshilik ko'rsatadi, lekin ayni paytda o'z mavqeyini aynan shu tizim orqali tasdiqlashga intiladi. Shu tariqa tashqi to'siq asta-sekin ichki qaramlik xususiyatini ham kasb etadi. K. Qal'aga qarshi turgan sari undan uzoqlashmaydi, aksincha, o'z hayotini tobora ko'proq Qal'aning qarorlariga bog'lab boradi. Frommning insonning o'z holatida kuchli tuzilma bilan identifikatsiya qilishga moyilligi haqidagi kuzatuv aynan shu paradoksnı kengroq insonshunoslik doirasida ko'rishga yordam beradi [5].

Qal'a ma'muriyatining badiiy tasviri bu holatni yanada murakkablashtiradi. Klamm va boshqa amaldorlarning nomlari mavjud, ular haqida odamlar gapiradi, ularning qarorlari qishloq hayotiga ta'sir qiladi. Biroq K. ular bilan bevosita munosabat o'rnatmoqchi bo'lganida unga oddiy ko'ringan aloqa deyarli imkoni yo'q qiyin vazifaga aylanadi [1: 163]. Hokimiyat shu tariqa bir vaqtning o'zida ham aniq, ham mavhumdir. Uning mavjudligiga hech kim shubha qilmaydi, ammo uning markaziga yetish qiyin. Tushda inson kimdandir qochayotganini yoki nimanidir izlayotganini bilishi, lekin bu kuchning aniq manbasini ko'rmasligi mumkin. Kafka hokimiyat obrazini ham shunga o'xshash tutib bo'lmas holatda saqlaydi.

Romandagi muloqot ham oneyrik poetikaning shakllanishida alohida ahamiyatga ega. "Qal'a" qahramonlari kam gapirmaydi. Aksincha, asarda uzoq suhbatlar, tushuntirishlar, izohlar va ma'muriy munosabatlarga oid ma'lumotlar ko'p. Ammo so'zlarning ko'pligi haqiqatni ravshanlashtirmaydi. Ba'zan bir masalani tushuntirish uchun berilgan izohning o'zi undan ham murakkab savolni tug'diradi. Oddiy muloqotda axborot noaniqlikni kamaytirishi kerak bo'lsa, Kafka olamida axborot ko'paygan sari noaniqlik ham ortadi. Shuning uchun til bu romanda faqat aloqa vositasi emas. U qahramon bilan u bilishga intilayotgan haqiqat o'rtasidagi masofani uzaytiradigan poetik mexanizmga ham aylanadi.

Aynan shu xususiyat "Qal'a"ni oddiy fantastik asardan ajratib turadi. Kafka voqelik qonunlarini ochiqdan-ochiq bekor qilmaydi. Qishloq real, odamlar real, ularning ehtiyojlari va munosabatlari ham kundalik hayotga yaqin. Tushsimonlik real olam o'rniga fantastik olam yaratilganidan kelib chiqmaydi. U real ko'ringan olam ichidagi munosabatlarning asta-sekin o'zgarishidan paydo bo'ladi. Yo'l manzilga olib bormaydi, tushuntirish aniqlik bermaydi, harakat natijaga aylanmaydi, hokimiyat ko'rinmaydi, lekin uning ta'siri hamma joyda mavjud. Shu sababli o'quvchi real va noreal voqelik o'rtasidagi aniq chegarani topa olmaydi.

Oneyrik poetikani mantiqsizlikning oddiy sinonimi sifatida tushunish ham to'g'ri emas. Tush mutlaqo tartibsiz hodisa emas. Unda uyg'oq ongning mantiqidan farqli bo'lsa-da, o'ziga xos bog'lanishlar mavjud. "Qal'a"dagi voqealar ham tasodifiy epizodlar yig'indisi emas. Qal'a tizimining o'z ichki qonuniyati bor. Muammo shundaki, K. bu qonuniyatga tashqaridan kirib keladi va uni o'zining ratsional mezonlari bilan anglashga harakat qiladi. Uning savollari mantiqiy, lekin olayotgan javoblari bu mantiq doirasiga sig'maydi. Shuning uchun

qahramon bilan olam o'rtasidagi ziddiyat nafaqat mazmun, balki idrok usullari o'rtasidagi ziddiyatga ham aylanadi.

Shu o'rinda absurd va oneyriklik tushunchalarini farqlash muhim. "Qal'a"dagi absurdlik qahramonning o'zi yashayotgan olam bilan mantiqiy va ma'naviy kelisha olmasligida namoyon bo'ladi. Oneyrik poetika esa ana shu absurd vaziyatning qanday qurilganini ko'rsatadi. Makonning beqarorligi, vaqtning takroriy xususiyati, sababiyatning buzilishi, erishib bo'lmaydigan maqsad, mavhum hokimiyat va g'ayrioddiy hodisalarning tabiiy qabul qilinishi birgalikda tushsimon badiiy voqelikni yuzaga keltiradi. Demak, oneyriklik absurdni almashtiradigan tushuncha emas. U Kafka absurdining poetik mexanizmlaridan birini ochishga yordam beradi.

Romanning tugallanmay qolganligi ham o'quvchida paydo bo'ladigan tuganmas izlanish hissini kuchaytiradi. Albatta, muallif yakunlamagan asarning holatini ataylab tanlangan kompozitsion usul sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi. Biroq mavjud matnning o'zidayoq yechimning muntazam kechiktirilishi kuzatiladi. K. bir masalani hal qilmoqchi bo'lganida yangi masala paydo bo'ladi; bir shaxsqa yaqinlashganida boshqa vositachiga ehtiyoj tug'iladi; bir ma'lumot aniqlangandek bo'lganida uning mazmuni yana shubha ostida qoladi. Shuning uchun roman matni yakunlanmaganidan qat'i nazar, tugallanmaslik hissi uning mavjud poetik strukturasi o'zida allaqachon shakllangan.

"Qal'a" tahlili shuni ko'rsatadiki, romandagi tushsimonlikni aniqlash uchun alohida "tush epizodi"ni izlash shart emas. Tush badiiy voqelikning o'ziga singdirilgan. Kafka qahramonni uxlatib, keyin fantastik voqealarni uning tushi sifatida taqdim etmaydi. Aksincha, K. uyg'oq, faol va o'zini ratsional tutishga intilgan holda qoladi, lekin u yashayotgan olam tushga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Aynan shu qarama-qarshilik romanning badiiy ta'sirini kuchaytiradi. O'quvchi K. bilan birga hamma narsani tushunishga urinadi, biroq har bir yangi izoh uni yakuniy javobdan yana uzoqlashtiradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "Qal'a"dagi oneyriklik faqat mazmuniy motiv emas, balki badiiy tafakkur usulidir. Makon, vaqt, sababiyat, til, hokimiyat va qahramon harakati

bitta poetik tizim ichida birlashadi. Ularning har biri alohida olinganda realistlik izohga ega bo'lishi mumkin, ammo ular birgalikda tushsimon voqelikni hosil qiladi. Kafka tushni hikoya qilmaydi, u tushning voqelikni tashkil etish usulini nasriy shaklga ko'chiradi. "Qal'a" poetikasining o'ziga xosligi ham, nazarimizda, aynan shu yerda namoyon bo'ladi.

Frans Kafkaning "Qal'a" romanini oneyrik poetika nuqtayi nazaridan tahlil qilish tushsimonlik asarda alohida tush epizodlari bilan chegaralanmasligini ko'rsatdi. U romanning makon va vaqt tuzilishida, sabab-oqibat munosabatlarida, qahramonning maqsadga yo'nalgan harakatida, muloqot shakllarida va hokimiyatning badiiy tasvirida namoyon bo'ladi. Qal'a ko'rinadi, lekin unga yetib borish qiyin; vaqt o'tadi, lekin qahramon maqsadiga yaqinlashmaydi; ma'lumot ko'payadi, ammo aniqlik kamayadi; hokimiyatning ta'siri seziladi, biroq uning markazi tutqich bermaydi. Bu belgilar alohida hodisalar emas, balki o'zaro bog'langan poetik tizimdir.

K.ning Qal'a bilan munosabati bu tizimning insoniy tomonini ochib beradi. U tashqi kuchga qarshilik ko'rsatadi, shu bilan birga o'z mavqeyini aynan shu kuch tomonidan tan olinishiga bog'laydi. Frommning insonning ojizlik sharoitida hokimiyatga ega tuzilma bilan identifikatsiya qilish orqali o'z faoliyati va kuchini his etishga urinishi haqidagi kuzatuv K.ning mazkur ichki ziddiyatini kengroq talqin qilish imkonini beradi [5]. Biroq begonalashuv "Qal'a"dagi oneyrik poetikaning o'rnini egallamaydi. Aksincha, qahramonning begonalashuvi tushsimon qurilgan makon, noaniq sababiyat va erishib bo'lmaydigan maqsad sharoitida yanada keskinlashadi.

Shunday qilib, "Qal'a"da tush tasvir obyektidan badiiy voqelikni tashkil etish tamoyiliga aylangan, degan xulosaga kelish mumkin. Kafka tush haqida hikoya qilishdan ko'ra, tushga xos idrok va voqelik qurilishi qonuniyatlarini roman strukturasi singdiradi. Aynan shu xususiyat asardagi absurdlik, begonalashuv va hokimiyat muammolarini yagona badiiy tizimda birlashtiradi. Kelgusida "Qal'a"dagi ushbu oneyrik modelni Kafkaning kundaliklarida qayd etilgan tushlar bilan qiyosiy o'rganish muallifning shaxsiy tush tajribasi bilan uning badiiy tafakkuri o'rtasidagi aloqalarni yanada aniqroq ochishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kafka F. Qal'a. – Toshkent: Muharrir, 2023.
2. Robertson R. Kafka: A Very Short Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2004.
3. Sokel W.H. The Myth of Power and the Self: Essays on Franz Kafka. – Detroit: Wayne State University Press, 2002.
4. Freud S. The Interpretation of Dreams. – Oxford: Oxford University Press, 1999.
5. Фромм Э. Душа человека: Ее способность к добру и злу. М.: Республика, 1992.